



**AQLI ZAIF BOLALAR NUTQ NUQSONIDAGI KAMCHILIKLARNI
BARTARAF ETISH**

Jalolitdinova Guloyim Oybek qizi

Toshkent Kimyo Xalqaro Universiteti Maxsus Pedagogika yo'nalishi

3-bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolam aqli zaif bolalarni nutqdagi kamchiliklarini bartaraf etish, korreksiyalash va rivojlantirishga yordam berish haqida yozilgan. Nutqida nuqsoni bo'lgan bolalarga ta'lif tarbiya berish va ularni tengdoshlari bilan birga bo'lishiga hayotga moslashtirish. Aqli zaif o'quvchilarni o'ziga xos xususiyatlari, shaxsi va shaxslararo munosabatlari , bilish jarayonlarining rivojlanish xususiyatlari yoritib berilgan.

Kalit so'z va iboralar: Aqli zaif bolalar , korreksiya, rivojlantirish ,shaxsi va shaxslararo, nuqsoni, hayotga moslashtirish, nutqi ,takomillshtirish.

Annotation: The purpose of educating children with speech defects and helping them to be with their peers, adapting to life, and the specific characteristics of mentally retarded students, their personal and interpersonal relationships, and the development of cognitive processes are highlighted.

Keywords and phrases: Mentally retarded children, correction, development, personal and interpersonal, defect, adaptation to life, speech, improvement.

Aqli zaif bolalar

Aqli zaif, ya'ni yordamga muxtoj bolalarga hozirgi kunda juda ham ko'p imkoniyatlar yaratilmoqda. Prezidentimiz SH. Mirziyoyev tomonidan Inklyuziv ta'lif yo'lga qo'yilgan . Inklyuziv ta'lif tizmini rivojlantirishning maqsadi –ta'lif olish uchun teng imkoniyatini ta'minlash va barcha bolalarning individual



xususiyatlaridan, oldingi ta'lim yutuqlaridan , til madaniyatini, ota –onalarning ijtimoiy va iqtisodiy holatidan qat’iy nazar ta’limda muvaffaqiyatga erishihsiga uchun zarur shart- sharoitlar yaratilmoqda. Inklyuziv ta’lim tizmini rivojlantirishning ustuvor yo’nalishlari quyidagilardir

- A) Inklyuziv ta’lim tizimi uchun pedagog kadrlarni tayyorlash , qayta tayyorlash va malakasini oshirish.
- B) Inklyuziv ta’limda o’qitish usullarini takomillashtirish , mazkur jarayonga individuallashtirish, tamoyillarini bosqichma bosqich tatbiq etish.

Defektologiya muammolari bilan shug’ullanuvchi chet el defetologlari , aqli zaiflik to’g’risida gaprib , tushunchani unga aqliy kamchilikni qo’shish bilan kengaytiradilar, uning yuzaga kelishi erta bolalaik vaqtida bola rivojlanishini o’ta nomuvofiq ijtimoiy sharoitlari bilan bog’liq bo’ladi. Atrofdagi kishilar bilan intellectual va hissiy muloqot yetishmasligi , doimiy to’yib ovqatlanmaslik va hakazolar ko’zda tutiladi . Aqli zaif bolalar asosan maktab va maktab-internatlarda tarbiyalananadilar , ular XX asri ohrigacha yordamchi deb atalardi, hozirgi VIII turdagicha maxsus mehnat ta’lim maktablari deb nomlanadi. Aqli zaif bolalarning ayrim qismi ommaviy umumta’lim maktablarida tashkil qilingan korreksion rivojlantirish ta’lim sifatlarida o’qiydiydarlar , hamda uy sharoitida individual o’qitiladi. Mehnat ta’limi maktabining barcha o’quvchilarini amaliy ikki guruhga bo’lish mumkin. Birinchi guruhga kiradigan bolalar asosan o’z rivojlanishlarining malum davrida bosh miya kasalligini boshidan kechirgan va shu kasallik qoldirgan nuqson asosida rivojlanayotgan amalda esa sog’ bolalar kiradi.Ikkinchi guruxga bosh miyadagi kaslliklari davom etayotgan bolalar kiradi.

Aqli zaif bolalarning ko’p qismini oligofrenlar tashkil etadi(grekcga oligof –kam, phrenos –aql) . Miya tizmining shkastlanishlari, psixikaning buzilishi va



chala rivojlanishga sabab bo'lib rivojlanishning dastlabki bosqichlarida yuzaga keladi .;

1 ona qornida

2 tug'ruq paytida

3 bir biryarim yoshida ya'ni nutq shakillanmasdan avval aqli zaif bolalarni ancha kichik yoshdagi normal rivojlanayotgan bolalarga tenglashtirib bo'lmaydi . Aqli zaiflik bir me'yorda emas bola psixik faoliyatining turli tomonlaridan ko'rindi. XX asirning 90-yillaridan boshlab aqli zaiflarning xalqaro tasnifi foydalana boshlandi, unga binoan bolalarni 4 guruhga bo'ldilar. Yengil , o'rta ,og'ir va chuqur darajadagi aaqli zaiflik . Chet el psixologlari bola intelekual koffitsentini aniqlashga asoslanadilar yani;

F 70 Yengil

F 71 O'rta

F 72 Og'ir

F 73 Chuqur .

Nutq

Aqli zaif bolalar o'zlarining sog'lom tengdoshlaridan farqli o'laroq ancha kech tilga kiradilar Birnchi so'zni aytish muddati bolaning uch, ba'zan besh yoshigacha keladi. Eng avvalo bu , bu yerda talaffuzdagi nuqsonlarini qayd etish kerak. G.A Kainning tatqiqotlariga ko'ra yordamchi maktab o'quvchilarining 66 foizi tutilib gaprishning u yoki bu shakliga duchor bo'ladi. Aqli zaif bolalarda nutqiy nuqsonlarning shunchalik katta miqdorda uchrashi tasodifiy hol emas. Aqli zaif bolalarda nutqning fonematik nuqsonlari turlicha namoyon boladi . Ba'zi bolalarda ular yaqqol namoyon bo'ladii. Bolalar ba'zi so'zlarni umuman tallafuz eta olmaydi(sh , r, k va boshqalari) bir qator tovushlarni talaffuz



etadilar(l,z,b) artikulyatsiya va eshitish boyicha o'xshash tovushlar almshtriliadi. So'zlarning ma'nosi tushunishdagi nuqsonlar o'z navbatida fonetik eshitishning rivojlanishini qiyinlashtiradi, shu bilan bola nutqning shakillanishini tormozlaydi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, yordamchi maktab boshlang'ich sinf o'quvchilarining 40-60% da turli nutq kamchiliklari uchraydi. Bu nuqsonlar orasida asosiy qismni chuchuklik, manqalanish, duduqlanish tashkil etadi. Aqli zaif bolalar nutqining aloqa vositasi sifatida rol barcha tomonlardan zararlangan bo'ladi. Bunda nutqning axborot, hissiy –iroda boshqaruvchanlik vzifalari buzilgan bo'ladi. Bunday bolalarda nutq bilan faoliyat orasida muvofiqlik ko'zga tashlanadi. Aqli zaif bolalar o'zlarini nazorat qilish uchun ham o'z nutqlaridan foydalana olmaydilar. A.R Luriyaning ta'kidlashicha, sog'lom bolalar yoshidayoq nutqdan nazorat quroli sifatida foydalana olar ekanlar.

Xulosa

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, bugungi kunda aqliy rivojlanishda nuqsoni bo'lgan maktabgacha katta yoshdagi bolalarda muloqot qilish ko'nikmalarini va qobilyatlarini shakllantirish darajasi ko'plab omillarga, shu jumladan intellektual rivojlanish darajasidagi bog'liqliknini ko'rsatadi.

Emotsional –irodaviy sohada o'ziga xos o'zgarishlarning mavjudligi o'zgargan kommunikativ rivojlanishni belgilaydi. Bu aqli yetishmovchiligi bo'lgan maktabgacha yoshdagi bolalarda muloqotga bo'lgan ehtiyojni anglash imkoniyati yo'qligida ifodalanadi, bu esa guruhda ijtimoiy bo'shliqni keltrib chiqaradi. Kommunikativ faoliyatidagi qiyinchiliklar, birinchi navbatda, nutq rivojlanishining past darajasi bilan izohlanadi. Nutq vositalarining rivojlanmaganligi aqliy zaif bolalarda aqliy xususiyatlarining paydo bo'lishiga yordam beradi. Bolalar o'zini tutish, qat'iyatsizlik, qo'rqoqlikka moyil bo'ladi. Nutq va umumiyl xulq atvorining o'ziga xos xususuiyatlarini shakllanadi(aloqa



holatiga sekin qo'shilish , cheklangan aloqa, suhbatini davom etirra olmaslik , nutqni tinglash), bu aqliy faoliyatning pasayishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar to'plami

1. Maxsus psixalogiya ; M.U.Xamidova, Z.N. Abidova, L.R.Mo'minova , Sh. M.Mamarajabo'va, D.B.Yakubjanova, Z.M.Djalolova
2. Maxsus pedagogika ;M .U.Xamidova